




SUD-HUQUQ TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'SIRI

Abdimurodov Mironshoh

TDYU 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17522704>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 4-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

raqamlashtirish, "E-sud",
videokonferensaloqa, sun'iy intellekt,
elektron jinoyat ishi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning sud-huquq tizimiga ta'siri hamda O'zbekiston Respublikasida raqamlashtirish jarayonining huquqiy asoslari tahlil qilingan. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida "E-sud" va boshqa tizimlarning joriy etilishi natijasida sud faoliyatida shaffoflik, tezkorlik va fuqarolarga qulaylik ta'minlanmoqda. Tadqiqotda 1999–2023-yillar oralig'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar tizimli o'rganilgan. Shuningdek, sun'iy intellektning sud amaliyotida qo'llanishi, uning imkoniyatlari va javobgarlik masalalari milliy hamda xorijiy olimlar fikrlari asosida tahlil etilgan. Muallif sud-huquq tizimini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish, yagona raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish va inson omilini kamaytirish zarurligini asoslab beradi.

Raqamli (digital) texnologiyalar butun dunyoni, shu jumladan mamlakatimizni ham chetlab o'tmay, ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, xususan sud-huquq tizimiga ham kirib keldi. Hozirda O'zbekiston Respublikasida internetdan foydalanuvchilar soni 31 mlndan oshgan¹ bo'lib, buni "virtual qabulxonalar", "elektron davlat xizmatlari", "onlayn auksion"lar, ochiq ma'lumotlar (data.gov.uz) va (my.gov.uz) kabi milliy ma'lumotlar bazalari va saytlar (d.xarid.uz) yaratilishi, ochiqlik va shaffoflik borasida mamlakatimiz BMT tomonidan tuzilgan "Ochiq davlat ma'lumotlari indeksi"da 0.8085 Very High OGD I ko'rsatkich qayd etib², "Open data watch"ning "Ochiq ma'lumotlar inventari"da 11-o'rin³ bilan "O'rta Osiyoda eng yaxshi" xalqaro e'tirofga sazovvor bo'lganligida kuzatish mumkin. 2020-2030 yillarda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat organlarining elektron infratuzilmadan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlash ko'zda tutilgan bo'lib, dastavval, 2012-yil 2-avgustdagi "Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4459-son Prezident Farmonida sudlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish belgilanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-dekabrda "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya

¹ Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov. 2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users/>

² The United Nations E-Government Survey. 2022. <https://desapublications.un.org/sites/default/files/publications/2022-09/Web%20version%20E->

³ Open Data Inventory by Open Data Watch. 2024. <https://odin.opendatawatch.com/Report/countryProfileUpdated>

texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 346-son qaroriga muvofiq "E-Sud" milliy elektron sudlov axborot tizimi yaratildi. Uning yordamida sudga murojaatlarni elektron shaklda yuborish, sud ishi ishtirokchilarini xabardor qilish va ularga sud hujjatlarini elektron shaklda yuborish, sudga yuborilgan hujjatlarni ko'rib chiqish holatini kuzatib borish, elektron hujjat almashish, davlat boji, sud majlisi jadvali xizmatlarini ko'rsatish joriy qilindi. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash bo'yicha dastavval, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrda "Sud-qidiruv faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5268-son Farmoni asosida "Elektron jinoyat ishi" tizimini joriy etish belgilandi. 2017-yil 30-avgustda "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3250-son qarori, 2018-yil 31-oktabrda "Jinoyat-huquqiy statistika tizimini tubdan takomillashtirish va jinoyatlarni tizimli tahlil qilish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5566-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-mayda 542-sonli qonuni bilan jinoyat protsessida videokonferensaloqadan foydalanish yo'lga qo'yildi. 2020-yil 3-sentabrda "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4818-son Prezident qarorida esa "2020-2023 yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish" Dasturi tasdiqlandi⁴. Dasturda sud majlislarini audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlislarini bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirish, sudlarda ishlarni sudyalarning o'rtasida avtomatik ravishda taqsimlash, sud ishtirokchilarini sud majlisining vaqti va joyi haqida "SMS" xabar orqali bepul asosda xabardor qilish, sud qarorlarini onlayn tarzda taqdim etish, sud ishlarini davlat arxiviga elektron shaklda topshirish va qabul qilish, sudlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini yanada yaxshilash kabi vazifalar nazarda tutildi.

Dastavval, globallashtirish jarayoni rivojiga nazar solsak, mamlakatimizda barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, raqamlashtirish islohotlarini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1-davr: (1999-2006-yillar).

2-davr: (2007-2012-yillar).

3-davr: (2013-2025-yillar).

1-davrda:

- 1999-yil 20-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi;

- 2002-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, dastlab axborot xavfsizligi tushunchasini belgilab berdi;

- 2003-yil 11-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi;

- 2004-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi;

- 2004-yilda 29-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

2-davrda:

- 2007 yilda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga alohida XX¹-bob kiritilib, unda: axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (axborotlashtirish qoidalarini buzish;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4818 son qarori 3-qism 3-bandi. 03.09.2020. <https://lex.uz/ru/docs/-4979896#-4980219>

kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish; kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish; kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish; kompyuter sabotaji; zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish; telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish) kabi jinoyatlar o'rin oldi.

Shu o'rinda olimlardan B.X.Xamidovning firicha: "Jahonda kompyuter axborotiga qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) kirish jinoyatini ochish va oldini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, mazkur jinoyat izlarini tezkor aniqlash, tahlil qilish va tergov yo'nalishlarini belgilash, raqamli tergovni tashkil etish va o'tkazish, tergov jarayonida ochiq manbalardan foydalanish, raqamli dalillarni to'plash, tekshirish va baholash hamda raqamli kriminalistik vositalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasida muayyan natijalarga erishilgan"⁵.

Shuningdek, I.R.Astanovga ko'ra, "Kompyuterlarga asoslangan jinoyatchilik – Bu faqat kompyuterlarda, masalan kiber-zo'ravonlik yoki spam kabi jinoyatchilik faoliyati. Kompyuter asri bilan yangi belgilangan jinoyat hisoblanib, faqatgina kompyuter orqali amalga oshiriladigan an'anaviy jinoyat turi sanaladi"⁶.

3-davrda:

1) O'zbekiston Respublikasining xalqaro internet-kanalga ulanish tezligi so'nggi ikki yilda 2,6 baravarga oshib, 3200 Gbit/s ga yetdi⁷;

2) 2014-yil 28-noyabrda MDH davlatlarining "Axborot, axborotlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash to'g'risida" hamda "Axborot-kommunikatsiya infratuzilmalarning muhim obyektlari to'g'risida"gi Namunaviy qonunlari asosida 2017-yil 8-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi, 2019-yil 2-iyulda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi hamda 2022-yil 15-aprelda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi.

3) Quyidagi Farmon va qarorlar qabul qilingan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgustdagi "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3250-son qarori;

- 2017-yil 30-avgustdagi PQ-3250-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2017-2020-yillarda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish Dasturi.

Ushbu islohotlar natijasida so'nggi yillarda sun'iy intellektdan ko'p maqsadlarda foydalaniladi. Masalan; Google, Youtube, Instagram, avtopilot, avtonom boshqaruv, telefon qurulmasidagi barmoq izlari va yuzni tanib olish tizimi yo'lga qo'yilgan. Sun'iy intellekt paydo bo'lgan davrdan boshlab uning insoniyat uchun foydali yoki zararli ekanligi haqida ko'plab bahsli munozaralar olib boriladi. Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralar, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, yaqin kelajakda sun'iy intellekt g'azna, moliya vazifalarini so'zsiz bajara olishi, tibbiyotda bemorlarni hisobga olish, ularga tez tibbiy xizmat ko'rsatish taxmin qilinadi.

⁵ Xamidov B.X. Kompyuter axborotiga qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) kirish jinoyatini tergov qilishning kriminalistik jihatlari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti. 2024. 9-b.

⁶ Astamov I.R. Raqamli ekspertiza imkoniyatlari: milliy va xorijiy tajriba. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi. 2019. 28-b.

⁷ Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov. 2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users>

Ammo ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan va hanuzgacha o'z yechimini topmayotgan muammolardan biri bu sun'iy intellekt tomonidan qilingan xato uchun javobgarlik masalasidir. Bu borada bir guruh olimlar sun'iy intellekt (robot) tomonidan yetkazilgan zarar hamda uning harakatlari uchun javobgarlikni uni ishga tushirgan shaxsga yuklash mumkin, deb hisoblaydi. Ba'zilarining fikriga ko'ra esa, sun'iy intellekt o'z qilmishi uchun o'zi javobgar bo'lishi lozim. Bizningcha, JKga binoan jinoyat subyekti jismoniy shaxs bo'lishi, aqli raso, jinoyat qonunida belgilangan jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan bo'lishi zarur. Ammo sun'iy intellektda ushbu belgilar mavjud emas.

Shunday bo'lishiga qaramay, bugungi kunda bir qator davlatlarda sud ishlarini "sun'iy intellekt" yordamida hal qilish yo'lga qo'yilgan bo'lsa, ayrimlarida ushbu mexanizmni amaliyotga kiritish masalasi o'rganilmoqda. Olimlardan P.Uinston, "sun'iy intellektni qabul qilish, muhokama qilish va harakat qilishga qodir bo'lgan hisoblash mashinasi"⁸ desa, A.Endryu esa, uni "aqliy faoliyat yuritish imkoniyatlari orqali ishlovchi mashina"⁹, J.Xoxland, "kompyuterlarni aql bilan o'ylashga majburlovchi urinish"¹⁰ deb ta'riflaydi, boshqa bir guruh olimlar fikriga ko'ra, sud tizimidagi sun'iy intellekt – bu aqliy mashinaning yagona tizimi emas, balki axborotni saqlovchi va tahlil qiluvchi avtomatlashtirilgan tizimning alohida elementlari bo'lib, ular elektron hisoblash mashinasiga insonning muayyan funksiyalarini bajarishga imkoniyat yaratadi. Mahalliy olimlardan, D.Aripovning fikricha, "odil sudlovni amalga oshirishda sun'iy intellekt – bu muayyan ishlar bo'yicha sud amaliyoti materiallari hamda qonun hujjatlarini o'zida saqlovchi, tahlil qiluvchi va tegishli qarorni qabul qiluvchi elektron dasturdir. Biroq, u inson-sudyaning o'rnini bosolmaydi, zero uning qarorlari faqat avval ko'rilgan sud ishlariga asoslanadi, ish holatlari va taraflarning holatlari avval ko'rilgan sud ishiga to'liq mos kelgandagina uning qarorlarini asosli deb hisoblash mumkin bo'ladi"¹¹.

Bizningcha, raqamli texnologiyalarni sud amaliyotiga tatbiq etishda har bir mamlakat o'ziga xos modelni ishlab chiqqan. Quyida uchta ilg'or davlat tajribasi tahlil qilinadi:

Buyuk Britaniyada "Remote Justice" konsepsiyasi asosida masofaviy adolat tizimi yo'lga qo'yilgan. COVID-19 pandemiyasi davrida sud majlislari Skype va Cloud Video Platform orqali o'tkazilgan¹². Qamoqqa olish, garov yoki muddat uzaytirish kabi shoshilinch masalalar masofadan turib hal etilib, shuningdek, guvohlarning ko'rsatuvlari video yozuvga olinishi va onlayn tarzda sudga taqdim etish tartibi joriy etilgan.

Estoniya esa raqamli davlatning eng ilg'or namunasidir. "E-Estonia" dasturi doirasida barcha davlat xizmatlari, jumladan sud tizimi to'liq elektron muhitga o'tkazilgan¹³. Har bir fuqaro yagona elektron identifikatsiya raqamiga ega bo'lib, u orqali sud qarorlari va ish yuritish jarayonini onlayn kuzatishi mumkin. Estoniya sudlarida hatto sun'iy intellekt yordamida qaror loyihalari tayyorlanmoqda. Bu raqamli adolat tizimining yangi bosqichidir¹⁴.

AQShda esa PACER (Public Access to Court Electronic Records) tizimi orqali har bir fuqaro sud hujjatlarini onlayn ko'rish imkoniyatiga ega¹⁵. Shuningdek, ECF (Electronic Case Filing) tizimi yordamida advokatlar, prokurorlar va sudyalalar elektron imzo orqali hujjatlarni

⁸ Winston P.H. Artificial Intelligence. -London: Addison-Wesley Publishing Company. 1993. -P. 2.

⁹ Endryu A. Iskustvenniy intellekt. -M.: Mir. 1985. -S.17.

¹⁰ Haugeland, J. Artificial Intelligence: The Very Idea. -Cambridge: MIT Press. 1985. -P. 5.

¹¹ Aripov D. Sud hokimiyati mustaqilligini tashkiliy-huquqiy takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari. Yuridik fanlar doktori dissertatsiyasi. –Toshkent. 2022. 108-b.

¹² HM Courts & Tribunals Service. "The Remote Courts Worldwide Database." Oxford University, 2021.

¹³ E-Estonia. "The Digital Society: How Estonia Became a Global Model for E-Government." Official Portal of Estonia, 2023.

¹⁴ Estonian Ministry of Justice. "E-Justice and the Use of Artificial Intelligence in the Court System." Tallinn, 2022.

¹⁵ United States Courts. "Public Access to Court Electronic Records (PACER)." Administrative Office of the U.S. Courts, 2023.

topshiradi va tahrir qiladi¹⁶. Ayrim shtatlarda "AI-judge" (sun'iy intellekt yordamida dastlabki tahlil) pilot loyihalari sinovdan o'tkazilmoqda¹⁷.

Qiyosiy tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, Buyuk Britaniya va AQSh tajribasi masofaviy sudlov va shaffoflikka e'tibor qaratgan bo'lsa, Estoniya to'liq raqamli davlat modeli orqali huquq tizimini avtomatlashtirgan. O'zbekiston esa bu ilg'or tajribalardan eng maqbullarini milliy tizimga moslashtirib, bosqichma-bosqich raqamli adolat modelini shakllantirmoqda. O'zbekiston sud-huquq tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish so'nggi yillarda tizimli tus oldi va bu jarayon adolatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "E-SUD" kabi tizimlarning yaratilishi natijasida sud faoliyatida shaffoflik, tezkorlik hamda fuqarolar uchun qulaylik sezilarli darajada oshdi. Raqamlashtirish tarixi 1999–2025-yillar oralig'ida uch bosqichda tahlil qilinib, har bir davrda qabul qilingan qonun va farmonlarning ahamiyati yoritildi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning sud amaliyotida qo'llanishi, uning imkoniyatlari va javobgarlik masalalari ham nazariy va amaliy jihatdan tahlil etildi. Buyuk Britaniya, Estoniya va AQSh tajribalarining qiyosiy tahlili O'zbekiston bu yo'nalishda bosqichma-bosqich, ammo izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar inson omilini kamaytirib, adolatli sudlovni ta'minlashda muhim vosita bo'lishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanishda huquqiy javobgarlik va etik me'yorlarni belgilash zarurligini asoslab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov. 2022.
<https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users/>
2. The United Nations E-Government Survey. 2022.
<https://desapublications.un.org/sites/default/files/publications/2022-09/Web%20version%20E->
3. Open Data Inventory by Open Data Watch. 2024.
<https://odin.opendatawatch.com/Report/countryProfileUpdated>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4818 son qarori 3-qism 3-band. 03.09.2020.
<https://lex.uz/ru/docs/-4979896#-4980219>
5. Xamidov B.X. Kompyuter axborotiga qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) kirish jinoyatini tergov qilishning kriminalistik jihatlar. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti. 2024. 9-b.
6. Astamov I.R. Raqamli ekspertiza imkoniyatlari: milliy va xorijiy tajriba. O'quv qo'llanma. -Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi. 2019. 28-b.
7. Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov. 2022.
<https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users>
8. Winston P.H. Artificial Intelligence. -London: Addison-Wesley Publishing Company. 1993. -P. 2.
9. Endryu A. Iskustvenniy intellekt. -M.: Mir. 1985. -S.17.
10. Haugeland, J. Artificial Intelligence: The Very Idea. -Cambridge: MIT Press. 1985. -P. 5.
11. Aripov D. Sud hokimiyati mustaqilligini tashkiliy-huquqiy takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari. Yuridik fanlar doktori dissertatsiyasi. -Toshkent. 2022. 108-b.
12. HM Courts & Tribunals Service. "The Remote Courts Worldwide Database." Oxford University, 2021.
13. E-Estonia. "The Digital Society: How Estonia Became a Global Model for E-Government." Official Portal of Estonia, 2023.

¹⁶ U.S. Federal Judiciary. "Electronic Case Filing (ECF) System Overview." uscourts.gov, 2023.

¹⁷ Stanford Law School. "AI and the Courts: The Rise of Algorithmic Decision-Making in U.S. Judicial Practice." 2022.

14. Estonian Ministry of Justice. "E-Justice and the Use of Artificial Intelligence in the Court System." Tallinn, 2022.
15. United States Courts. "Public Access to Court Electronic Records (PACER)." Administrative Office of the U.S. Courts, 2023.
16. U.S. Federal Judiciary. "Electronic Case Filing (ECF) System Overview." uscourts.gov, 2023.
17. Stanford Law School. "AI and the Courts: The Rise of Algorithmic Decision-Making in U.S. Judicial Practice." 2022.



**INNOVATIVE
ACADEMY**